

BOLALAR HUQUQ VA ERKINLIKLARINI HIMOYA QILISHNING MUHIM PRINSPLARI

Sayitxoniva Barchinoy Axatovna

Tarix fani o'qituvchi

Sayitxoniva Barchinoy Axatovna

Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchi

Eraliyeva Shirmonoy Nuraliyevna

Tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Bolalar ijtimoiy himoyasining eng asosiy jihatlaridan biri salomatlik bilan bog'liq masalalardir. Ushbu maqolada bolalar himoyasining mamlakatimizdagi o'rni va bolalar himoyasi uchun davlatimizning chora-tadbirlari haqida ma'lumotlar berilgan. UNICEFning Sog'liqni saqlash vazirligiga bu borada bergan tavsiyalari va bajarilayotgan amallar haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *sog'liqni saqlash, bolalar soglig'i muhofazasi, UNICEF, ona-bola, bolalar parvarishi.*

KIRISH

Butun dunyoda bolalar himoyasi, parvarishiga alohida e'tibor qaratilib, 1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni katta shodiyona sifatida nishonlanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligiga Xorazm, Surxondaryo va Toshkent viloyatlaridagi sakkizta birlamchi tibbiy-profilaktika muassasasida uyga tashrif buyurishning universal-progressiv tizimini modellashtirishda yordam berdi. Bunday yondashuv tibbiyot hamshiralarga kasallikning xavfli belgilarini vaqtida aniqlash, otanalarga bolani parvarishlash bo'yicha foydali maslahatlar berish, ijobiy amaliyotni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Bola huquqi bo'yicha vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga tobe bo'lmagan tarzda bajaradi. Vakil daxlsizlik huquqidan foydalanadi:

Oliy Majlis palatalarining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas;

Vakilga nisbatan jinoyat ishi faqat bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin;

Vakilni majburiy keltirishga, ushlab turishga, uning shaxsiy buyumlari, transporti, turar joyi va xizmat xonasini ko'zdan kechirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ombudsman Bola huquqlari bo'yicha vakilning faoliyati muvofiqlashtirib boradi. Vakil har yili Oliy Majlisga bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan rioya qilinishi holati haqida ma'ruza taqdim

etadi. Bola huquqlarini himoya qilishning ayrim jihatlariga e'tiborni kuchaytirish zarur bo'lganda, Vakil Parlament va Hukumatga huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar ko'rishni qaratilgan maxsus ma'ruzalar taqdim etishi mumkin.

Bola huquqlari bo'yicha ombudsmanning mintaqaviy vakillari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi.

Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini monitoring qilish maqsadida Bola huquqlari bo'yicha vakil huzurida Jamoatchilik kengashi tashkil etiladi. Uning tarkibiga obro'-e'tiborli fuqarolar, olimlar, ekspertlar, NNT, OAV va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari kiritiladi.'

O'zbekistonda bolalarni himoya qilish tizimining tarkibiy qismlari institutsional darajada bo'lishiga qaramasdan, kadrkarnin yetishmasligi, moliyalashtirishning yetarli emasligi va idoralararo muvofiqlashtirishni yo'qligi tufayli samarali faoliyat ko'rsatmaydi. Zo'ravonlik, shafqatsiz munosabat, beparvolik yoki tasodifiy shikastlanishga duchor bo'lgan bolalar har doim ham tegishli himoya xizmatlarini olmaydilar va ko'pincha mahsus muassasalarga joylashtiriladilar. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan 2017 yilda olib borilgan bola huquqlarini himoya qilish tizimini baholashda mahalliy hokimiyat organlari va ta'lim, va sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari himoyaga muhtoj bolalarni aniqlash va ularning ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli bilim, ko'nikma va vositalar bilan ta'minlanmaganligini ta'kidladilar. Bola himoyasi bilan bog'liq masalalar bo'yicha ma'lumot ham cheklangan.

umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro paktda (jumladan, 23- va 24-moddalarda), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro paktda (jumladan, 10-moddada), shuningdek, ixtisoslashgan muassasalar hamda bolalarning farovonligi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarning Nizomlari va tegishli xujjatlarida e'tirof etilganligini e'tiborga olib,

Bola huquqlari deklaratsiyasida ko'rsatib o'tilganidek, "bola, agar u jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetishmagan bo'lsa, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj" ekanligini e'tiborga olib,

Ijtimoiy va huquqiy tamoyillar to'g'risidagi deklaratsiyaning bolalar himoyasi va farovonligi, ayniqsa, bolalarni milliy va xalqaro darajalarda tarbiyalashga berish hamda asrab olish paytidagi himoyasi va farovonligiga doir qoidalariga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari ("Pekin qoidalari") va Favqulodda holatlarda va qurolli mojarolar davrida ayollar va bolalarni himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiya qoidalariga tayanib, jahondagi barcha mamlakatlarda nihoyatda og'ir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida e'tiborga muhtoj ekanliklarini e'tirof etib, bolaning himoya qilinishi va uyg'un ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning an'analari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olib, har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda

bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligini e'tirof etib, quyidagilar haqida kelishib oldilar:

1-modda

Ushbu Konvensiyaning maqsadlari uchun 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tinch va farovon Hayot - Bolalarga neg yaxshi tuhfa. <https://yuz.uz/uz/news/tinch-va-farovon-hayot-bolalarga-eng-yaxshi-tuhfa>
2. Ona va bola salomatligi. <https://yuz.uz/uz/news/tinch-va-farovon-hayot--bolalarga-eng-yaxshi-tuhfa>
3. Alderson, P., & Montgomery, J. (1996). Health care choices: making decisions with children (Vol. 2). Institute for Public Policy Research.
4. Remschmidt, H., & Belfer, M. (2005). Mental health care for children and adolescents worldwide: a review. *World Psychiatry*, 4(3), 147.